

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 10

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 10 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Фарманова Гулнара Комилевна
МЕТОДЫ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО
СОГДА В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА 9-18

Саидбобоева Гулзора Нематжонова
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ АРХИВИ ҲУЖЖАТЛАРИДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРИНИНГ
ҚУРИЛИШИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР (XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ ОХИРИ-30-ЙИЛЛАР
БОШИ) 19-26

Ахмедов Шахзод Фарход ўғли
МУСТАҚИЛЛИККА ЭРИШИШ АРАФАСИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ
УМУМИЙ ҲОЛАТИ ВА МАВЖУД МУАММОЛАРИ 27-34

Mirsoatova Sayyora Turg'unovna
MARKAZIY FARG'ONA NEOLIT JAMOALARI MADANIYATI HAQIDA MULOHAZALAR 35-39

Янгибоева Дилноза Ўктамевна
МУҲАММАД ШАРИФЖОН МАХДУМ САДРИ ЗИЁНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ
ФАОЛИЯТИ 40-48

Маҳмудов Эркинжон Асқаралиевич
АРАБЛАР ТОМОНДАН ФАРФОНАНИНГ ЗАБТ ЭТИЛИШИ ҲАҚИДАГИ МАЪЛУМОТЛАР ВА
УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ 49-53

Yoriqulov Nasibulla Xoliyorovich
O'ZBEKISTON HUDUDIGA G'ARB ME'MORCHILIK AN'ANALARINING KIRIB KELISHI 54-58

Ergasheva Bahridil G'olibjonovna
IJTIMOIY TARMOQLARDAGI REKLAMALARNING IJTIMOIY-MA'NAVIY HAYOTGA TA'SIRIGA
DOIR MULOHAZALAR (ETNOSOTSILOGIK TAHLIL) 59-65

Абдухамидов Исломбек Абдухалим ўғли
МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИНИ ЎРГАНИШДА ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР 66-74

Boltayeva Moxichehra Jamshid qizi
XORIJIIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA
ERISHILGAN KO'RSATKICHLAR (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA) 75-80

Кандахаров Анваржон Хасанович, Бабаярова Шахноза Шухратовна
БУХОРО ХОНЛИГИДА АБДУЛЛАХОН II ДАВРИНИНГ ҚУРИЛИШ ИНШООТЛАРИ
ТАРИХИГА БИР НАЗАР 81-86

8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Boltayev Nurali Shiramatovich
AGRAR OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING
BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI 87-93

<i>Дустова Мухайё Худайбердиевна</i> РОСТ, УСТОЙЧИВОСТЬ, ДОХОДНОСТЬ: ЭКОНОМЕТРИКА ФИНАНСОВЫХ ПОТОКОВ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ	94-102
<i>Ravshanov Malik Naimovich</i> METHODOLOGY FOR DETERMINING THE NEED FOR ECONOMIC RESOURCES OF THE ROAD TRANSPORT COMPLEX.....	103-108
<i>Xushmuradov Oman Namozovich</i> TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	109-115
<i>Raximjonov Kamronbek Ixomjon o'g'li</i> DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISH	116-121
09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна</i> АКАДЕМИК ИБРОҶИМ МЎМИНОВ ИЛМИЙ ЖАСОРАТИНИНГ ЯНГИ ҚИРРАСИ	122-128
<i>Talabov Baxriddin Alijanovich</i> KONSTITUTIONIZM DEMOKRATIK RIVOJLANISHNING ASOSI SIFATIDA	129-134
<i>Tajibaev Muxiddin Abdurashidovich</i> JAMIYAT HAYOTIDA SINERGETIK DUNYOQARASH PARADIGMASINI TADQIQ QILISHNING AHAMIYATI	135-140
<i>Солиев Икромжон Комилжонович</i> РАҚАМЛИ ДУНЁДА ИНСОН ҚАДРИ МУАММОСИ: ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИН	141-147
<i>То'хтайев Hakim Primovich</i> TASAVVUF TA'LIMOTLARIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING NAMOYON VO'LISH XUSUSIYATLARI	148-153
<i>Уразалиева Гулшада</i> СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ «ГЕНДЕР» В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ	154-160
<i>Гуламова Мавжуда Ташпулатовна</i> ИЖТИМОЙ АХЛОҚ МЕЗОНЛАРИНИ ЎРГАНИШДА КУМУШХОНАВИЙ ВАСИЯТНОМАЛАРИНИНГ ЎРНИ	161-167
<i>Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li</i> GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOYIY-DUNYOVIY DAVLAT SIFATIDAGI MAQOMI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)	168-172
<i>Quvonov Sardor Zokirovich</i> MA'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA "MANOQIBI SHAYX XUDOYDOD VALIY" ASARINING AHAMIYATI	173-178
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	

<i>Халметова Меҳрибону Гайратжонова</i> ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКОЙ ЛЕКСИКИ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	179-186
<i>Abdijabbor Amanov</i> MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIKNING MATNNING KATTA BIRLIGI SIFATIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	187-193
<i>Umarova Xurshida Zikiryoixonovna</i> AQSH ADABIYOTIDA PSIXOLOGIK ROMAN TADRIJI	194-201
<i>Odinayev Bekqul Imamqulovich</i> LISONIY SHAXS: TA'RIF, TAHLIL, TALQIN	202-210
<i>Jaloliddin Jo'rayev, Jamoliddin Jo'rayev</i> "DEVONI LUG'ATIT-TURK" VA "GULSHAN UL-ASROR"DAGI QADIMGI TURKIY SO'ZLAR QIYOSI	211-217
<i>Saidov Akmal Azimovich</i> "TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI" YO'NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARDA MADANIYATLARARO MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	218-224
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li</i> SUDYALAR OLIY KENGASHINI SUDYALARNING CHINAKAM HAMJAMIYATI ORGANIGA AYLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY MASALALARI	225-231
<i>Жўраев Дилмурот Мухторович</i> МАЪМУРИЙ ВА ОММАВИЙ ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН НИЗОЛАРНИ СУДДА ҲАЛ ЭТИШДА КЕЛИШУВ ТАРТИБ-ТАОМИЛЛАРИНИ ҚЎЛЛАШГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР	232-240
<i>Эшонхонов Камолхон Маматхонович</i> БАНД СОЛИНГАН МУЛКНИ ҚОНУНГА ХИЛОФ РАВИШДА ТАСАРРУФ ЭТИШ ЖИНОЯТИНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШДАГИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР.....	241-246
<i>Бўриев Одил Қобилович</i> КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ – ИНСОН ҚАДРИНИ ЮКСАЛТИРИШ МЕЗОНИДИР	247-253
13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Umarzoda Shohruh Azamat o'g'li</i> "ALGORITMIK TILLAR VA DASTURLASH ASOSLARI" FANI MAZMUNI VA O'QITISHNING MAVJUD HOLATI	254-259
<i>Эргашева Гули Исмоил кизи, Инамова Гуллола</i> ЗНАЧИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФОНЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ КОММУНИКАЦИИ.....	260-265

<i>Bobomurotov Sirojiddin Mengziyo o'g'li</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI VARIANTIV TUSHUNCHALAR ASOSIDA O'QITISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING O'RNI	266-271
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI	272-277
<i>Ботиров Азизбек</i> РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ: АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ	278-283
<i>Эшбеков Сардор Журакулович</i> ЁШЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШИНИГ МУҲИМ ОМИЛИ	284-288
<i>Abdullaeva Feruza Suyunovna</i> KASBIY TERMINOLOGIYANI O'RGATISHDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	289-293
<i>Ortiqov Oybek Rustamovich</i> OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING TASHKIL ETILISHI.....	294-298
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING "TIL VA NUTQ" MARKAZIDA INNOVATSION FAOLIYAT OLIB BORISH	299-303
<i>Robiya Mannopova</i> INNOVATIVE COMPETENCY AS A CORE COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS.....	304-308
<i>Qodirov Olim Odilovich</i> REFLEKSIV YONDASHUV, UNING MOHIYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	309-314
<i>Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna</i> TARBIYA FANINI O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	315-322
<i>Xasanova Gulsanam Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATDA MAGISTRATURA TALABALARINING TASHKILIY- BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI	323-328

09.00.00-Фалсафа фанлари

Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li
Falsafa doktori (PhD), Buxoro davlat universiteti

GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOYIY-DUNYOVIY DAVLAT SIFATIDAGI MAQOMI (IJTIMOYIY-FALSAFIY TAHLIL)

Annotatsiya. Mazkur maqolada global o'zgarishlar sharoitida O'zbekistonning ijtimoiy-dunyoviy davlat sifatidagi maqomi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: global o'zgarishlar, mintaqaviy o'zgarishlar, xususiy o'zgarishlar, taraqqiyot jarayoni, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar.

Kholikov Lazizjon Makhmud ugli
Doctor of Philosophy (PhD)
Bukhara State University

STATUS OF UZBEKISTAN AS A SOCIO- SECULAR STATE IN CONDITIONS OF GLOBAL CHANGES (SOCIAL AND PHILOSOPHICAL ANALYSIS)

Abstract. This article highlights the status of Uzbekistan as a social and secular state in the context of global changes.

Key words: global changes, regional changes, private changes, development process, education, health care, social and economic problems.

Холиқов Лазизжон Махмуд ўғли
Доктор философии (PhD)
Бухарский государственный университет

СТАТУС УЗБЕКИСТАНА КАК СОЦИАЛЬНО-СВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ (СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ)

Аннотация. В данной статье освещается статус Узбекистана как социально-светского государства в условиях глобальных изменений.

Ключевые слова: глобальные изменения, региональные изменения, частные изменения, процесс развития, образование, здравоохранение, социально-экономические проблемы.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I10Y2023N24>

Kirish. Falsafada global o'zgarishlar deganda jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ekologik o'zgarishlar tushuniladi va bu o'zgarishlar taraqqiyotning muhim obyektiv omili sifatida mamlakatlar taraqqiyotiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu o'zgarishlar XX asrning o'rtalarida inson faoliyatining jadallashuvi bilan

hamohang bo'lgan turli xil o'zgarishlarni qamrab oladi. "Ayni shu sababli butun insoniyat manfaatlariga daxldor muammolarni ham, dunyoning turli nuqtalaridagi har bir ayrim insonga tegishli bo'lgan, ya'ni umuminsoniy xususiyat kasb etadigan muammolarni ham "global" deb nomlash odat tusini olgan" [1].

Global o'zgarishlar deyilganda nafaqat biologik, fizik va kimyoviy o'zgarishlar, shuningdek, millatlararo munosabatlarning integratsiyalashuvi jarayonida, ularning milliy madaniy merosi va qadriyatlarida sodir bo'ladigan o'zgarishlar ham tushuniladi. Bunda global muammolar bir tomondan, tabiat stixiyasi asosida vujudga keladigan zilzila, suv toshqinlari, qurg'oqchilik va epidemik kasalliklar orqali namoyon bo'lishi mumkin. Insoniyat bunday o'zgarishlarni butunlay oldini olib bilmasada, ammo uning halokatli oqibatlarini kamaytirish yo'lida sezilarli yutuqlarga erishib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahonda tolerantlik masalasi asosan hozirgi zamon global muammolari hamda etnik munosabatlardagi o'zgarishlarni tushunish kontekstida xorijlik Bras Frensis, R. Hughes, D. Gatti, D. Radebe, A. Munniksma, R. Vorlichek, P. Gurur, L. Gunnar, B. Ravinder, E. Havekes, A. S. Huynh tomonidan tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlarida millatlararo bag'rikenglik mavzusi S. Alibekova, N. Vagabova, R. Valitova, L. Kuznesov, Y. Magomedova, A. Nekrasova, A. Purtova, V. Terentev, N. Yurovskix kabi olimlarning bag'rikenglik madaniyatining o'ziga xos jihatlari, bag'rikenglik tamoyillari va etnik muammolar bilan bog'liq muayyan jihatlari tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada global o'zgarishlar sharoitida O'zbekistonning ijtimoiy-dunyoviy davlat sifatidagi maqomi va uning mohiyatini yoritib berishda sintez, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, kontent analiz, qiyosiy tahlil, dialektik, usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Bugun jahondagi ko'plab faylasuf olimlar yer sayyorasi miqyosida integratsiyalashuv jarayoni sababli yagona sivilizatsiya vujudga kelayotganligini ta'kidlab kelishmoqda. Bu haqda Arnold Toynbi quyidagilarni ta'kidlaydi: "hech bir sivilizatsiya taraqqiyot jarayonini ushlab qola olmagan" [2]. Ijtimoiy falsafada ushbu jarayon globalizatsiya tushunchasi sifatida jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi. Ushbu konsepsiya insoniyatni umumiy taqdir va umumiy uy tushunchalari bilan bog'laydi.

Global o'zgarishlarni falsafiy jihatdan tushunishning o'ziga xos jihatlari tadqiq etar ekanmiz, falsafaning asosiy vazifalariga tayanib, uning quyidagi xususiyatlarini alohida ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

Birinchi, falsafa tabiat qonuniyatlari va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari asosida ijtimoiy hodisa va jarayonlarni tushuntirib beradi va global o'zgarishlarni o'rganar ekan, ularni jamiyat taraqqiyotida ishtirok etuvchi hodisalar sifatida e'tirof etadi;

Ikkinchi, ijtimoiy falsafa global o'zgarishlarni o'rgangani uchun bu o'zgarishlar millatlar ijtimoiy-madaniy taraqqiyotining obyektiv rivojlanish qonuniyatlari mahsuli hisoblanadi;

Uchinchi, ijtimoiy falsafa global o'zgarishlar jarayonining umumiy tendensiyasini, ularning o'zaro bog'liqligini va o'zaro zarurat darajasini falsafiy kuzatish imkonini beradi;

To'rtinchidan, global o'zgarishlarni ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish millatlarning milliy tarixi, falsafasi va madaniyatini o'rganishni taqozo etadi. Shu ma'noda, xalqlar oldida turgan muayyan global muammolarni ularning falsafasi va madaniyatiga bog'lamasdan turib yechib bo'lmaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "Hech bir mamlakat yolg'iz holda global xavf-xatarlarni chetlab o'tish yoki bartaraf etishga qodir emas" [3].

Beshinchidan, global o'zgarishlarga oid axborot ko'lamining kengayib borayotganligi natijasida yanada ko'proq metama'lumotga ega bo'lish imkoniyati va uni tushunishga nisbatan to'g'ri yondashuvning yo'lga qo'yilishi muhim ahamiyat kasb etadi;

Oltinchidan, ijtimoiy falsafa milliy madaniy meros, qadriyatlar integratsiyasi insoniyat taqdiri masalalarini o'rganar ekan, bu jahon hamjamiyatiga global o'zgarishlar tahdid solayotgan sharoitda dolzarblik kasb etadi.

Yettinchidan, ijtimoiy falsafa jahon va insoniyatni o'ylantirib kelayotgan dolzarb muammolar bilan bevosita dialektik aloqador bo'lgan va bashariyat rivojlanishining obyektiv tendensiyalarini anglab yetishda muhim ahamiyat kasb etadigan global o'zgarishlar, milliy-madaniy meros va qadriyatlar integratsiyasi kabi kategoriyalarni ishlab chiqadi.

Global o'zgarishlar hozir butun dunyo hamjamiyatiga tegishli bo'lib, dunyoning turli mintaqalari va mamlakatlari miqyosida namoyon bo'lganligi sababli, tor doiradagi ba'zi mahalliy va mintaqaviy o'zgarishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Global o'zgarishlarni falsafaning umumiylik, xususiylik va alohidalik kategoriyalari orqali o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Falsafada mavjud kategoriyalarga asoslanib, ijtimoiy hayotda yuzaga kelayotgan xususiy o'zgarishlarni alohida muammolar sifatida, mahalliy va mintaqaviy ahamiyatga ega o'zgarishlarni esa, xususiy muammolar hamda jahondagi global o'zgarishlarni umumiy miqyosdagi muammolar sifatida baholash mumkin.

Xususiy o'zgarishlar davlat faoliyatining muayyan bir sohasiga ayrim aholi istiqomat qiladigan hududga tegishli bo'lgan o'zgarishlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Mahalliy darajadagi o'zgarishlar esa, o'z mohiyatiga ko'ra yuqoriroq darajadagi jarayonlarga, ayrim davlatlar yoki uning yirik hududlariga tegishli bo'lgan yangilanish va o'zgarishlarga nisbatan qo'llaniladi.

Milliy o'zgarishlar muayyan davlat yoki milliy hamjamiyatda yuzaga kelgan yangilik va muammolarni o'zida aks ettiradi. Bunday o'zgarishlarni ko'لامي jihatidan mintaqaviy va mahalliy o'zgarishlarga bo'lish mumkin.

Mintaqaviy o'zgarishlar yer sayyorasidagi ayrim kontinent, jahon hamjamiyatidagi yirik ijtimoiy-iqtisodiy nuqtalar yoki davlatlarda yuzaga kelayotgan o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Masalan, Sharq-G'arb, Janub-Shimol, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar doirasida yuzaga kelayotgan muammolar shular jumlasidandir.

Global o'zgarishlar butun yer sayyorasini, unda nafaqat insoniyat yashaydigan hududni, balki butun yer sayyorasining qolgan qismlari, yer osti, gidrosfera, atmosfera va hatto inson faoliyati doirasiga kiruvchi kosmik fazoni ham o'z doirasiga qamrab oladi.

Umuman olganda, global miqyosdagi o'zgarishlar haqida gapirganda, eng katta tarkibiy birlik sifatida "mintaqa" so'zi ishlatiladi. Masalan, jahon taraqqiyoti va qashshoqlik muammolarini o'rganar ekanmiz, yer sharini ikki mintaqaga bo'lish mumkin: rivojlangan va rivojlanayotgan.

Falsafiy nuqtayi-nazardan global o'zgarishlarning sifati, o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib tahlil qilar ekanmiz, uning o'ziga xos quyidagi mezonlari ko'zga tashlanadi:

birinchidan, global o'zgarishlar o'z strukturasi ko'ra nafaqat ayrim insonlar manfaatlariga, balki, butun insoniyat taqdiriga aloqador bo'lgan o'zgarishlarni o'zida ifodalaydi;

ikkinchidan, global o'zgarishlarni salbiy jihatlarini bartaraf etish va uning ijobiy jihatlarini ommalashtirish yer sayyorasidagi aholining aksariyat qismining kuch-g'ayratini birlashtirib, ularni izchil faoliyat olib borishini talab etadigan jarayondir;


uchinchidan, global o'zgarishlar jahon taraqqiyoti rivojining obyektiv qonuniyati hisoblanib, bu o'zgarishlar biror bir mamlakat yoki hududning e'tibordan chetda qolishiga yo'l qo'ymaydigan jarayondir;

to'rtinchidan, global o'zgarishlar yuzaga keltirayotgan salbiy kamchilik va muammolar bartaraf etilmas ekan, bu o'zgarishlar kelajakda butun insoniyat va uning sivilizatsiyasi va ekologiyasi uchun tuzatib bo'lmaydigan jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin;

Yuqorida ko'rsatilgan global o'zgarish mezonlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning barchasi bir-biriga shunchalik aloqador bog'langanki, bu o'z navbatida, insoniyat sivilizatsiyasiga aloqador bo'lgan jiddiy muammolarni hal qilishda boshqa bir muammolarning ta'sirini ham inobatga olishni taqozo etadi.

Ijtimoiy falsafada inson va ijtimoiy muammolar bilan bog'liq global o'zgarishlar demografiya, fan va innovatsiyalar, madaniy to'qnashuvlar, xalqaro terrorizm va ma'naviy tahdidlarni o'z ichiga oladi.

Asosiy global o'zgarishlar bilan bog'liq muammolarni quyida ko'rib o'tishimiz mumkin:



Yuqorida sanab o'tilgan global o'zgarishlarning kelib chiqishi va mavjudligi odamlarning shaxsiy va jamoat manfaatlariga tegishli bo'lib, ularni hisobga olish kerak. Bu borada jahon hamjamiyatida 1992 yilda Ryo-de Janeyroda bo'lgan xalqaro konferensiyada alohida e'tibor qaratildi. Davlatlar va hukumatlar ishtirok etgan ushbu konferensiyada barqaror rivojlanish konsepsiyasi qabul qilinib, unda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish, atrof-muhitni himoya qilish, yosh avlod ehtiyojlarini qondirish va kelajak avlod uchun bunday imkoniyatlarni qoldirish ta'kidlangan.

Xulosa va takliflar. Muxtasar qilib aytganda, global o'zgarishlar transformatsiyasida sivilizatsiyalararo to'g'ri muloqotning yo'lga qo'yilishi jahon xalqlari orasida bir-birini tushunish va hurmat qilish me'yorini saqlab qolishga xizmat qiladi. Bunda madaniyatlararo muloqot bir-birini tushunish va hurmat qilish madaniyati insoniyat hayotini urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga transformatsiya qiladigan g'oyat serqirra, shu bilan birga integratsiya jarayoni ehtiyojiga aylangan falsafiy fenomendir. Muloqot jarayonida siyosiy madaniyatning yo'qligi xalqlar o'rtasida turli darajadagi ziddiyat va kelishmovchiliklarga olib keladi. Shu sababdan ham, muloqot jarayoni o'zaro hurmat, bir-birini tushunish, ochiqlik va oshkoralikka asoslanish dolzarbligicha qolmoqda. Madaniyatlararo integratsiya turli xalqlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va yaqinlashuv orqali umuminsoniy madaniyatni yaratishga asos bo'ladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Shermuhamedova N. Falsafa. –Toshkent. 2010. –B. 544
2. A.J. Toynbi. Sivilizatsiyalar inqirozi. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/arnold-jozef-toynbi-sivilizatsiyalar-inqirozi.html>
3. Shavkat Mirziyoyev: “Hech bir mamlakat yolg'iz holda global xavf-xatarlarni chetlab o'tish yoki bartaraf etishga qodir emas”. <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-hech-bir-mamlakat-yolg-iz-holda-global-xavf-xatarlarni-chetlab-o-tish-y>
4. Lazizjon Kholikov. [PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF NATIONS AND INTERNATIONAL RELATIONS IN THE VIEWS OF EASTERN THINKERS](#) // Current approaches and new research in modern sciences. 2023/7/10.
5. Lazizjon Kholikov. [FEATURES OF INTERNATIONAL RELATIONS IN THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN](#) // Development of pedagogical technologies in modern sciences. 2023/7/10.
6. Lazizjon Kholikov. [THEORETICAL FOUNDATIONS OF NATIONS AND INTERNATIONAL RELATIONS](#) // Science and innovation in the education system. 2023/7/10.
7. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. *Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST)*, 7(1), 149-157.
8. Sobirovich T. B. National and universal principles of democracy //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 12. – №. 1. – C. 334-338.
9. Sobirovich T. B. The implementation of human indicator reforms in Uzbekistan //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 9. – C. 197-202.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 10 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).